

## Odamiylik mulki (I- qism)

Tohir Malik

«  
«  
Darhaqiqat, Biz Odam bolalarini aziz-mukarram qildik va ularni barru-bahrda -  
quruqlik va dengizda (ot-ulov va kemalarga) chiqarib qo'ydik hamda ularga halol-pok  
narsalardan rizqu ro'z berdik va ularni O'zimiz yaratgan juda ko'p jonzotlardan afzal-  
ustun qilib qo'ydik.

Al-Isro surasidan

### GULISTON ISTA, EY KO'NGIL

---

Muqaddima o'rnidagi bu dastlabki bob mazkur kitobga tartib berish sabablari va maqsadlari bayonidan iboratdir.

Assalomu alaykum, azizlarim.

Sizlaru bizlarni go'zal suratda yaratgan va cheksiz ne'matlarga burkagan Rabbimiz Alloh taologa cheksiz hamdu sanolar aytamiz. Buyuk Parvardigorning buyuk irodasi ila buyuk vazifalarni yelkalarida ko'targan va sizni bizga hidoyat yo'lini ko'rsatgan suyuqlik payg'ambarimiz Muhammadga salavot va salomlar yo'llaymiz. Allohning inoyati va marhamati ila ko'p yillik niyatimizni amalga oshirmoqqa kirishyapmizkim, bu ishimizni ham Yaratganning O'zi xayrli qilg'ay. Shu paytga qadar badiiy ijodda yaxshimiyomonmi mashqlar qilib, o'zimizni sinab ko'rdik. So'ng odob bobida birodarlarimizga nafi tegar, degan umid bilan «Mehmon tuyg'ular» nomida bir kitobchaga tartib berdik. So'ng uni to'ldirib, «Imonlashish umidi» degan nomda e'tiborlaringizga havola etdik. Keyin esa farzandlar tarbiyasida foydali bo'lib qolar, degan maqsadda bir risola yozib unga «Jinoyatning uzun yo'li» deb nom berdik. Bu yo'nalishdagi urinishlarimizni endi mazkur odob risolasi nihoyasiga yetkazar, insha Alloh!

Ma'lumimgizkim, o'tmishda o'tgan ustozlarimizning aksari badiiy asarlar yozish bilan birga axloqqa doir risolalar ham bitganlar. Agar ziyraklik bilan kuzatsak, o'tmish adabiyotimizning asosini odob masalalari band etgan. «Adabiyot» - «odoblarni to'plami» ma'nosini anglatishi ham shundandir. Badiiy asar qaysi tarzda, qaysi yo'nalishda yozilmasin, odamlarni tarbiya qilishga, ya'ni yaxshilik sari boshlab, yomonlikdan qaytarishga xizmat etishi lozim.

Tarixda bunday kitoblarning hisobi yo'q. Shularning ayrimlarini o'qish jarayonida kaminada undagi hikmatlar bilan birodarlarni tanishtirish mayli uyg'ondi. Rahmatli tog'am, ulug' adib Mirzakalon Ismoilijon axloq masalalariga doir bir qancha risolalar yozgan edilar. Shulardan biri - «Qizlar daftariga» kitobini yozgach, muxlislardan ko'p maktublar oldilar va uning davomi sifatida «Bunisi sizlarga, yigitlar» degan axloq kitobini yozishni niyat qilgan edilar. Ammo bu niyat amalga oshmay, armon bo'lib qoldi. Shu nom ostida bir kitob yozmoqlikni ko'p o'yladim. Hamkasblarim orasida ham bu ishga da'vat etganlar bo'ldi. Uzoq yillar davomida tayyorgarlik ko'rgan bo'lsam-da, yozishni boshlashga jur'at eta olmadim. Vaqti-soati yetibdi, shekilli, axloq mavzuiga doir to'plagan ma'lumotlarimni qaragam, yetmishdan ziyod daftarga jo bo'libdi. Allohga